MINTAQADA KLASTERLAR O‘RTASIDAGI IQTISODIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Kadirov San’at Yuldashevich,
Urganch Ranch texnologiya universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD,
e-mail: sanat_k_s@mail.ru

Nurullayev Baxrom Botirovich,
Urganch Ranch texnologiya universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22853799

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada klasterlarni rivojlantirish zaruriyati va uni amalga oshirishda tashkiliy mexanizmlar bayon etilgan. Shuningdek, mintaqada klasterlarni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini amalga oshirish yuzasidan xulosa bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье описывается необходимость кластерного развития в регионе и организационные механизмы его реализации. Также приводятся выводы об использовании организационных механизмов кластерного развития в регионе.

Abstract. This article describes the need for cluster development in the region and the organizational mechanisms for its implementation. Also, a conclusion is made on the implementation of organizational mechanisms for cluster development in the region.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, klaster, davlat, munosabat, iqtisodiy munosabat.

Ключевые слова. Регион, кластер, государство, взаимоотношения, экономические взаимоотношения.

Key words. Region, cluster, state, relationship, economic relationship.

Bugungi globallashuv sharoitida hududlar iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda klaster yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, klasterlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, innovatsiyalarni keng joriy etish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Mintaqada faoliyat yuritayotgan klasterlarning o‘zaro iqtisodiy hamkorligi qo‘shimcha qiymat zanjirini shakllantirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi kooperatsiya munosabatlarini mustahkamlash, ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar, ilmiy muassasalar va ta’lim tashkilotlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki, klasterlar import o‘rnini bosishga yordam beradi, bu esa viloyatlarning strategik rivojlanish maqsadlarini bajaradi, istiqbolda resurslardan yanada samarali foydalanishga imkon beradi va yalpi hududiy mahsulotni oshiradi [1].

Klasterlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar turli sohalarda faoliyat yurituvchi klasterlar o‘rtasida mahsulot, xizmat, kapital, axborot, texnologiya va mehnat resurslari almashinuvi bilan bog‘liq

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

munosabatlar majmuasini anglatadi. Bu boradagi tadqiqotlarda iqtisodiyot tarmoqlarini o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi optimal qarorlarni qabul qilish asosida Xorazm viloyatida tarmoqlararo klasterlar samaradorligini oshirishning optimal mexanizmi taklif qilingan [2]. Mazkur munosabatlar ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Masalan, qishloq xo‘jaligi klasteri sanoat klasteriga xom ashyo yetkazib beradi, sanoat klasteri esa qayta ishlangan mahsulotni savdo va logistika klasterlari orqali ichki va tashqi bozorlarga yetkazadi. Mazkur hamkorlik natijasida qo‘shimcha qiymat yaratiladi, mahsulot sifati oshadi va ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi. Ammo, klaster tizimini innovatsion loyihalar va innovatsion texnologiyalar orqali amalga oshirish butun jahon talablariga mos, sifatli va xaridorgir mahsulotlrni yaratishimiz uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi [3].

Klasterlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash korxonalar o‘rtasida uzoq muddatli shartnomalar tuzish, mahsulot yetkazib berish tizimini takomillashtirish va ishlab chiqarish zanjirini muvofiqlashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlaydi. Innovatsion hamkorlikni rivojlantirish orqali ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligida yangi texnologiyalar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy qilinishi mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi. Innovatsion loyihalarning amalga oshirilishi klasterlar o‘rtasida bilim va texnologiyalar almashinuvini kuchaytiradi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish natijasida elektron savdo platformalari, raqamli logistika tizimlari, yagona axborot bazalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari iqtisodiy munosabatlar shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Klasterlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda davlat sektori esa huquqiy asoslarni takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy hamkorlik uchun qulay sharoit yaratadi. Davlat imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari, subsidiyalar va grantlar orqali klasterlar faoliyatini rag‘batlantiradi. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

Ulardan tashqari, klasterlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishda moliyaviy resurslarga keng imkoniyat yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada tijorat banklari, investitsiya fondlari va xalqaro moliya institutlari ishtirokida moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Investitsiyalarni jalb qilish uchun esa hudud iqtisodiy salohiyatini namoyon etuvchi investitsiya dasturlari ishlab chiqilishi, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarish loyihalari qo‘llab-quvvatlanishi va zamonaviy infratuzilma shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Hamda zamonaviy iqtisodiyotda axborot resurslari muhim strategik omil bo‘lib hisoblanadi. Shu bois, klasterlar o‘rtasida yagona raqamli axborot platformalarini yaratish, bozor kon’yunkturasi, talab va taklif, resurslar, investitsiya loyihalari hamda innovatsion ishlanmalar haqidagi ma’lumotlarni tezkor almashish iqtisodiy munosabatlarni yanada takomillashtiradi. Bu orqali qaror qabul qilish sifati oshadi, bozor xatarlari kamayadi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi.

Xulosa shuki, mintaqada klasterlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini yuksaltirish sharti bo‘lib hisoblanadi. Klasterlar o‘rtasidagi kooperatsiya, innovatsion hamkorlik, raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalarni faol jalb qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari iqtisodiy munosabatlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kelgusida klasterlar o‘rtasida integratsiyani yanada chuqurlashtirish, qo‘shimcha qiymat zanjirlarini

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

kengaytirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudova G., Qudratov A. O’zbekistonda innovatsion klasterlarning xorij tajribasidan foydalanish istiqbollari. // Iqtisod va moliya, 2023, 1 (161) - 50 b.
2. Sharipova Z.A. Mintaqada tarmoqlararo klasterlar samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Urganch, 2025. - 8 b.
3. Ochilov I.S., Abdumuminov B.K. Klaster tizimida innovatsion samaradorlik masalalari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №2, mart-aprel, 2019. - 8 b.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.